

ERKIN SAMANDAR - SHOIR VA DRAMATURG

Махмудова Дилафруз Султанназировна

*Урганч шаҳар 1- сон касб хунар мактаби она тили ва адабиёт фани
ўқитувчиси*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, shoir, nosir, dramaturg Erkin Samandarning dramaturglik mahorati, xususan, ijodkorning dramasi g'oyasi, mazmun va badiiyati haqida so'z borib, asarning mavzu yuzasidan mohiyati muxtasar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *drama, dramaturgiya, sujet, konflikt, komediya, tragediya.*

Milliy adabiyotimizda XX asrning dastlabki choragida Behbudiy va boshqa jadid adabiyoti namoyondalari tajribalari asosida yangi adabiy tur - dramaturgiya namunalari bo'y ko'rsata boshladi. Bu adabiy tur davr o'tishi bilan jahon adabiyoti andozalari asosida takomillashdi va natijada dramatik asarlarning yangi ko'rinishlari yuzaga keldi. Buni Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy ijodidan boshlab Hamid Olimjon, Izzat Sulton, M.Shayxzoda, Abdulla Qahhor, O.Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Sharof Boshbekov, Usmon Azim, Erkin Samandar, Ilhom Hasan, Abdulla A'zamlar ijodida ko'rish mumkin. Asosiy tasvir predmeti harakat sanaluvchi dramaning (dramatik tur nazarda tutilmoqda) tur sifatida xoslovchi xususiyati uning sahna uchun yaratilishi, subyekt, ya'ni ijodkor shaxsiyatining obyektga singdirib yuborilishi, makon va zamon masalasiga jiddiy e'tibor qaratilishidir. Makon va zamonda cheklanganlik jihatidan dramada harakat keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanuvchi sujet asosiga qurilishni taqozo qiladi. Ya'ni voqealar orasidagi sabab-natija munosabati makon va zamon nuqtayi nazaridan kelib chiqib tasvirlanadi, o'zaro yaqinlik kasb etadi. Bu xususda adabiyotshunos D.Quronov shunday fikr bildiradi: "Dramaturg asarni yaratish jarayonidayoq uning sujet voqealari ijro vaqtiga sig'ishi masalasida qayg'urishi darkordir. Shunga ko'ra, dramatik asarda sujet voqealarining keskin konfliktlar asosida shiddat bilan rivojlanishi zaruratga aylanadi". Uchta asosiy janr: komediya, tragediya va dramani o'z ichiga oluvchi dramatik turning o'ziga xos eng yaqqol belgilari shulardan iborat bo'lib, bu nazariyani amaliy jihatdan muayyan asar misolida tekshirib chiqamiz. Badiiy adabiyot nafosatini goh nazmda, goh nasrda va goho dramatik namunalarda gavdalantirib kelayotgan o'zbek adiblaridan biri Erkin Samandar o'zining xos uslubi, yo'nalishi bilan o'quvchilarni badiiyatga oshno etib kelayotgan ijodkorlardan biridir.

Uning dramatik yo'nalishda yozilgan "Javohir", "Ajdodlar qilichi", "Olma pishganda galing", "Yot hujra", "Samarqandning ikkinchi osmoni" asarlari adibga xos ko'pqirralilikni namoyon etadi. Har uchala turda birdek qalam tebratib kelayotgan qalamkashning ijodiy mundarijasidagi asosiy mavzular tarix va tabiat bo'lgani bois

uning asarlar qatida ham tarix va Ona tabiat bilan bog'liq asarlar salmoqli o'rinni tashkil qilishini ko'ramiz. Biz bevosita so'z yuritmoqchi bo'lgan "Ajdodlar qilichi" tarixiy fojiasi ham shular jumlasidandir. Ushbu tarixiy fojia moziy silsilasining fojeiy davridan, ya'ni bosqinchi mo'g'ullarning yurtimizda qilgan vayronakorliklari va ularga qarshi jasorat bilan kurashgan ulug' sarkarda Jaloliddin Manguberdi haqidagi voqealardan hikoya qiluvchi yana bir badiiyat namunasidir. Ijodkorning o'zi ma'lumot berishicha, Sulton Jaloliddin haqida asar yozish ishtiyoqi unda o'tgan asrning 60-yillarida bo'y ko'rsata boshlagan, o'z ma'lumotlariga tayanib bir qancha baytlar, she'rlar bitgan. Ularning dastlabki ko'rinishi esa "Xiva", "Xorazm farzandiman" she'rlarida ma'lum misra va bandlar ko'rinishida, so'ngra "Olis nidolar", "Ona va o'g'il" balladalarida, "Temir qoziq bog'i" she'rida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan. Biroq bu ulug' siymo haqida yirikroq va yanada mazmunliroq asarlar yozish istagi adibni bir lahza ham tinch qo'ymadi, undagi ishtiyoq kuchaygandan kuchaya bordi: "Saksoninchi yilga kelib ko'nglimda Jaloliddin haqida roman yozish istagi tug'ildi. An-Nasaviyning Z.Bunyodov tomonidan nashr ettirilgan Sulton Jaloliddin tarixiy asarini o'qiyverib, yod olib yubordim desam, mubolag'a bo'lmaydi,"- deydi adib bu haqida. Ijodkor davr voqeligini haqqoniy va yorqinroq aks ettirib berish maqsadida ko'pgina izlanishlar olib bordi, tajriba orttirdi. Jumladan, u Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk" kitobi, Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi, Ozarbayjon yozuvchisi M.O'rdubodiyning "Qilich va qalam", G.Abashidzening "Yaldo kechasi" romanlarini o'qib, olimlarning qator ilmiy ishlari bilan tanishib chiqdi hamda romanning dastlabki qismlarini yozishga kirishdi. Bu uchun maxsus shug'ullanmoq uchun yozuvchilarning Gruziyadagi (Jaloliddin o'tgan yo'llardan) ijod bog'iga yo'llanma ham olib ketdi. Bir qancha vaqt u yerda bo'lib, keyinchalik yurtga qaytib kelgan ijodkor kundalik ishlari bilan band bo'lib, romanning tugallanishi biroz vaqtga to'xtab qo'ydi. O'sha paytlari dramaturgning Ogahiy teatri bilan hamkorligi kuchaygan davrlar edi, shu boisdan teatr jamoasi undan yangi-yangi sahna asarlarini kutar, bu ishga adibni qistashar edi. Shu qistovlar vajidan ijodkorda Sulton Jaloliddin haqida drama yozish fikri tug'ildi. Natijada esa to'plangan tajribalar asosida "Ajdodlar qilichi" tarixiy fojiasi yaratildi va 1986-yilda Ogahiy teatrida sahnaga qo'yildi. Biroz vaqt o'tib ushbu tarixiy fojia va uning mantiqiy davomi hisoblanuvchi "Yot hujra" dramasi, chala qolgan romanning ayrim boblari 1999-yilda "Sharq" nashriyot-matbaa konsernida "Jaloliddin Manguberdi" nomi ostida yaxlit kitob shaklida chop etildi va o'quvchilar hukmiga havola etildi. "Ajdodlar qilichi" fojiasi Jaloliddin Manguberdi jasorati va bosqin davrida xalqning, saroy ahlining holatini tasvirlovchi ikki fasl, olti ko'rinish va xotimadan iborat dramatik asardir. Muallif ushbu asarni "She'riy tarixiy drama" deb ataydi. O'zida tragik xususiyatlarni ham aks ettiruvchi ushbu asarda dramatik ruh ustuvorligini inobatga olib, biz ham shartli ravishda bu asarni drama janriga mansub deb qaraymiz, fojia so'zini esa tragediya janri bilan ma'nodosh sifatida qaramasdan, uni to'g'ridan to'g'ri o'z leksik ma'nosida qo'llaymiz. Mazkur dramada voqealarni harakatga keltiruvchi asosiy 27 ta qahramon qatnashgan. Ulardan Ona - Ona zamin, hur qizlar

ramziy-timsoliy xarakterga ega bo'lib, ular asar badiiyatini ta'minlashda ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Bosh qahramon - Jaloliddin obrazini ochib berishda yordamchi vazifa bajaruvchi personajlar - Chingizxon, Muhammad Xorazmshoh, Yovqoch botir, Muzaffar Malik, onasi Oychechan, alloma Ibn Umar va boshqalar dramada o'ziga xos o'ringa ega obrazlardir.

Asardagi har bir qahramon voqealarni yoritib berishda o'z vazifasiga, badiiyat nuqtayi nazaridan o'z o'rniga ega. Ularning umumlashmasi esa birgina badiiy niyatni - erk va hurlik tamannosi ko'rsatishni taqozo qiladi. Bu haqda B.Yo'ldoshev va X.Bo'ronovalarning E.Samandar asarlarining til xususiyatiga bag'ishlangan monografiyasida shunday deyilgan: "Ajdodlar qilichi" - ko'p qatlamli asar. Dramada tasvirlangan voqealar 1220-yillarda Movaraunnahr va Xurosonda bo'lib o'tadi. Har bir obraz alohida-alohida yo'nalishdagi o'z taqdiriga, o'z hayot falsafasiga ega. Lekin bularning barchasi asardagi bosh yo'nalishga - shaxs erki, millat qadri, ona Vatan sha'ni uchun kurash g'oyasini yoritishga qaratilgan". "Ajdodlar qilichi" dramasi kirish qismiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u bevosita jang tasviri bilan boshlanadi. Hind (Sind) daryosi bo'yida yuz berayotgan jangning so'nggi damlari, Jaloliddin va uning xos askarlari bilan mo'g'ullar o'rtasidagi to'qnashuv tasviri, Sulton Jaloliddinning bo'lajak izzatlaridan oldidan onasi Oychechan bilan suhbat, ahli oilasini Chingiz qo'lga tushmasligi uchun daryoga oqizishi voqealari yuz berishi jarayonlari bilan boshlanadi. Shundan so'ng dramada retrospektiv sujet bosh o'ringa chiqadi. Ya'ni voqealar Chingiz bilan to'qnashuv yuz berishidan oldingi mashvarat tasviriga qaytadi. Bunda dramada yuz berishi lozim bo'lgan konfliktga asos qo'yila boradi. Dramada tasvirlanayotgan tarixiy voqeaning eng fojey nuqtasi bo'lgan Muhammad Xorazmshohning yo'l qo'ygan xatosi asosiy tasvir obyektiga sifatida olinadi. Ikki fasl, ko'rinish va xotimadan iborat "Ajdodlar qilichi" dramasi sujeti shu tariqa rivojlana boradi. Dramaning xotimasi go'yo iqror va qasamyod yanglig' yangraydi. Jaloliddin, Chingiz, Ona zamin, odamlar tilidan iqror-u qasam aytiladi. Asar pafosi aynan shu o'rinda yaqqol namoyon bo'ladi. Chingizxonning Jaloliddin jasorati uchun aytgan mashhur iqrori ham xotimada beriladi: ...Senmi? (o'g'li Jo'jiga) unga yetolmaysan, oqib ketursen, Jaloliddin boshqa, uning yo'rig'i bo'lak, O'zining ham, otining ham bordir qanoti, O'g'ling bo'lsa bo'lsin ekan Jaloliddinday! Ushbu dramatik asarda ijodkor dramaturg sifatidagi mahoratini yaqqol namoyon eta olgan. Uning voqealar tasvirini berishdagi ifodalari, bo'rttirishlarsiz, mubolag'alardan holi uslubi asar o'qishlilikini, ishonarli chiqishini yanada ta'minlagan. Mazkur asar yuzasidan yana shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu drama ijodkorning vatanparvarlik hisi, ajdodlarga hurmat va milliy o'zlikka nisbatan g'urur tuyg'ulari mujassami yanglig' dunyoga kelgan. Bunda dramaturg tarixiy voqelikka nisbatan munosabatini qahramonlar tilidan teran anglatishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D.Adabiyotshunoslikka kirish.T.:204
2. Samandar E.Jaloliddin Manguberdi. T.:1999
3. Samandar E.Nazm nafasi. T.:2015